

This is not registered version of Total Doc Converter

Yaqin shahar dumasini yozdilar. Shahar dumasini, shaharimizning pokizalik va obodlig'i, maktablarimizning taraqqiy va intizomi, bolalarimizning tarbiyasi va xalqimizning tinchligi uchun kerak bo'lgan ishlarni o'z qo'lga olur. Shahrimizdan xazinaga kiraturgan oqchalarni shu yo'llarda sarf qilmoqchi bo'lur.

Bu oldimizdagi shahar dumasini eski hukumat zamonidagi shahar dumalarig'a o'xshamas. Yigirmadan o'tgan butun shahar odamlarining ixtiyorlari bilan saylanurlar. Bu shahar dumasinda juhuddan, rusdan, musulmondan vakil qilib o'turur[2]. Va shahar ishlari uchun gapurushurlar. Shaharning qaysi qit'asinda kasalxonalar qurmoq kerak, shaharning qaysi qit'asindag'i yo'llarni tuzatmoq kerak, shaharning qaysi qit'asinda qancha maktab solmoq kerak deb kengashurlar va shul to'g'rilardag'i ishlarni "vakillar ko'pchiligi" ning qarori bilan qilmoqchi bo'lurlar. Vakillar ko'pchiligi hammadan burunroq eski qit'aning yerlarin tuzaturg'a qaror bersa, chora yo'q, shu qilinur. Vakillar ko'pchiligi ko'broq kasalxonalarni yangi qit'ada solmoqchi bo'lsa, iloji yo'q, shu bo'lur. Mana shularni onglagan har jamoat, har millat shahar dumasiga o'zidan ko'broq vakil o'tkazmoq uchun tirishadir, dumaning ko'pchiligining o'ziga olmoqchi bo'ladir. O'tgan haftadagi "tahriri nufus"dan[3] ong'lashildiki: shahrimizda xalqning to'rtidan uchi musulmon va to'rtidan biri rus, armani va juhud ekanlar. Shunga qarag'anda unlar xazinadan chiqim bo'laturg'an oqchanning uch shunchasi biz uchun chiqg'uchidur. Unlarga maktab ochilsa bizga uchta; unlariga bir kasalxona ochilsa bizga uchta ochg'uli; unlariga bir put bug'doy kerak bo'lsa bizga uch put kerakdir.

Qisqasi shulkim: bizning haqimiz ularning haqtarindan uch yo'la berkdir. Mana shularni tilab olmoq uchun shahar dumasining ko'pchiligini olmoq kerak, shahar dumasining ko'pchiligini olmoq uchun musulmonlarning saylov kuni lozimdur. Yo'q, saylov kuni har kim o'z uyinda o'tirsa; boshqalar ko'pchilik bo'lib kelsalar va dumaning ko'pchiligini o'z taraflarig'a o'tkarsalar; u vaqt biz hech bir haqimizga erisholmasmiz, yana eski kabi huquqsiz bo'lib qolurmiz; yana eskisi kabi o'z shahrimizda o'z oqchamizning rohatini o'zimiz ko'rolmasmiz.

Shuning uchun bag'iribroq aytamankim, o'z xalqlarini yana boshqalarning oyoqlari ostinda qo'ymoqchi bo'lmag'an musulmonlar! Saylov kuni g'ofil qolmanglar, ko'pchilik bo'lib kelurg'a tirishinglar.

("Hurriyat", 1917 yil, 25 avgust, 33-son)

Qayta nashri: "Yoshlik", 1991,10-son, 44-45-betlar (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Maqola Samarqand shahri dumasiga saylovlar oldidan yozilgan.

† Duma - Rusiyadagi saylov tizimiga ko'ra mustamlaka o'lkalardagi xalq vakilligi organlari ham дума deb yuritilgan.

† vakil qilib o'turur - Samarqand shahri ko'p millatli bo'lgani uchun shahar dumasiga, asosan, turk, rus va yahudiy millatiga mansub kishilargina saylovlarda qatnashish huquqini olganlar.

† tahriri nufus - Samarqandda 1917 yil 18-20 avgustlarda saylov oldidan aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan, o'sha nazarda tutiladi.